

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERIVCHI DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01.
RAQAMLI KENGASH**

O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

NAMAZBAYEVA LOLA ZAKIROVNA

**BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA
TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.08 – Maktabgacha ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Namazbayeva Lola Zakirovna

Bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash
metodikasini takomillashtirish..... 3

Намазбаева Лола Закировна

Совершенствование методики подготовки будущих
воспитателей к исследовательской деятельности..... 21

Namazbaeva Lola Zakirovna

Improving the methodology for preparing future educators for
research activities..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERIVCHI DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01.
RAQAMLI KENGASH**

O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

NAMAZBAYEVA LOLA ZAKIROVNA

**BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA
TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.08 – Maktabgacha ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2020.1.Phd/Ped4678-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdpu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida (www.ziyo.net.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponent:

Abduraximova Dilfuza Aliyevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Etakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01-raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «___» _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-76-51.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil "___" _____dagi _____-raqamli reestr bayonnomasi).

Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

R.G.Isyanov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
p.f.d., dotsent

D.B.Yakubjanova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonning yetakchi oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning ilmiy jihatlarini aniqlashtirish, ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishda ta'lim mazmunini takomillashtirishning innovatsion modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha xalqaro ta'lim konsepsiyasida "bilimning mustahkam poydevoriga ega bo'lish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni, tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish" dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Talabalarni tadqiqot olib borish faoliyatini takomillashtirish, ularning bilim, ko'nikma, tadqiqiy-bilish va refleksiv faoliyatini samarali tashkil etish maqsadga muvofiq. O'quv jarayonida muammoni aniqlash hamda eksperimentlardan umumli foydalanish, tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari, evristik faoliyat, kichik tadqiqot va ijodiy loyiha tuzish asosida talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot tashkilotlarida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ta'lim sifatini xalqaro darajaga ko'tarish, talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning kognitiv, analitik, ijodiy fikrlash, axborot va hodisalarni mustaqil ravishda tahlil qilish, tadqiqot madaniyatiga amal qilish, tahlil va sintezni o'zlashtirish, abstraktsiya va umumlashtirish, amaliyotga tatbiq etish, o'z g'oyalarini himoya qilish, shaxsiy takliflarini himoya qilish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash, gipotezalarni ilgari surish, eksperiment o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lish, nostandart vaziyatlarda harakat qilish usullariga ega bo'lish, bilimlarni izlab topa olish, natijalarini bayon qilish, dalillarni tasniflash; fikrlarini tushuntirish, isbotlash, o'z g'oyalarini himoya qila olish qobiliyatilari kichik tajribalarni amalga oshirish, ta'lim mazmuni, shakl va vositalarini optimallashtirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Bugun har bir oqituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak" deb ta'kidlangan¹. Maktabgacha ta'limda bolalarni tabiat bilan tanishtirish orqali maktab ta'limiga sifatli tayyorlash mazmuni va texnologiyasini takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 16-dekabrda O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" qonuni, 2019 yil 8-maydagi PQ-4312 "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kompetensiyasi" to'g'risidagi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti

¹ Mirziyoyev Sh.M. 2020 yil 30 sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi": <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyevning-oqituvchi-va-murabbiylar-kuniga-bag'ishlangan-tantanali-marosimdagi->

muayyan darajada xizmat qiladi va oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, mazkur masalaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda o'quv jarayonida tadqiqotchilik faoliyati masalalari I.B.Asqarov, R.X.Djuraev, B.X.Raximov, R.G.Safarova, K.T.Suyarov, N.N.Karimova, N.A.Muslimov, N.N.Narziyeva, J.R.Turmatov, Sh.Xasanovalarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan. Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, tarbiyalanuvchilarni aqliy, axloqiy, estetik, ekologik tarbiyalash, nutqni rivojlantirish bilan aloqadorligi D.A.Abduraximova, G.N.Ibragimova, G.Nazirova, T.L.Xurvalieva, F.R.Qodirova, kichik bolalarning sog'lom o'sishi, inson sifatida rivojlanishi va moslashuvining nazariyasi M.N.A'zamova, L.R.Mo'minova, G.O.Najmiddinova va N.I.Rejametova tomonidan tadqiq etilgan.

MDH davlatlaridan V.V.Davidov, I.Ya.Lerner, V.F.Shatalov, N.A.Fedotova, L.F.Fominalar talabalarining tadqiqot faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishning turli jihatlari, N.L.Drevnitskaya, M.I.Maxmutov, A.S.Obuxov, N.V.Ogorodnikova, A.V.Teremov, A.V.Xutorskoy, M.V.Stepanova, A.P.Tryapitsina va boshqalar talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini loyihalashtirish, A.N.Poddyakov maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda tadqiqot faoliyatini shakllantirish, A.I.Savenkov kichik yoshdagi bolalarda tadqiqot faoliyati usullarini tadqiq etgan.

Xorijlik olimlar S.Brukfeld, F.Buxberger, F.Kampos, G.Kollier, P.Cermeli, M.Kounl, V.Xatmeycher, J.Xertij, I.Klim, Xeinrich, P.Heinrich, P.Kelzlarning ilmiy tadqiqot ishlarida talabalar tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish metodikasi va ularda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish masalalarini atroflicha o'rgangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qo'qon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IL-52-tur-21091476-raqamli "Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasining yagona ma'lumotlar bazasiva elektron platforma yaratish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan (2019-2022 yy.).

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash mazmuni va metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini ochib berish;

bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlik mezonlarini aniqlashtirish;

bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash modelini takomillashtirish;

talabalarining tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning didaktik ta'minotini boyitish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlari Toshkent davlat pedagogika universiteti, Farg'ona va Guliston davlat universitetlari maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi 347 nafar bo'lajak tarbiyachilar jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga doir falsafiy, psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlarni o'rganish va qiyosiy tahlil etish, ilg'or tajribalarni o'rganish, anketa-so'rovnoma, pedagogik prognostika va tashxislash, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, pedagogik eksperiment, modellashtirish, suhbat, intervyu, sintez, matematik-statistik qayta ishlash, tahlil etish va natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasi shaxsiy pozitsiyasini faollashtirishga yo'naltirilgan, o'z-o'zini rivojlantirish va rag'batlantirishning individual faoliyat traektoriyasini intellektual sifatlarining namoyon bo'lish izchilligiga adaptiv uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasini rivojlantirish jarayoni izlanuvchanlik kompetensiyasining tashkiliy-maqсадli, mantiqiy-tizimli, didaktik-dagnostik yondashuvlariga ustuvorlik berish hamda fasilitatsion ta'lim muhitini yaratish, ijodkorlikni rivojlantirishning ichki va tashqi omillari integrativligini izchil yaxlitlash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash modeli evristik-produktiv faoliyatli ta'lim texnologiyalarining tadqiqotchilikka yo'naltiruvchi muammoli vaziyat yaratish hamda qiyosiylik, o'lchamlilik tamoyillari integrativ kombinatsiyasidan foydalanish hamda amaliy natijalarni nazorat qilish va rag'batlantirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning didaktik taminoti tahliliy va evristik ko'nikmalarni rivojlantirishning transformatsion komponentlarini ilmiy tafakkurdan amaliy tafakkurga moslashtirish hamda tezkor qarorlar qabul qilish, qo'llash, muammoli va ijodiy mashqlar ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda "o'quv tadqiqoti", "maxsus kompetensiya", "evristik yondashuv", "tadqiqotchilik faoliyati", "harakat traektoriyasi", "tajriba va eksperiment" tushunchalarini amaliy tavsiflovchi o'quv-uslubiy ta'minot yaratilgan;

bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning didaktik imkoniyatlarini boyitishga xizmat qiluvchi "Bolalarni tabiat bilan tanishtirish" o'quv qo'llanmasi tatbiq etilgan;

bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlik darajalarini baholash mezonlarini ijtimoiy buyurtma asosida aniqlashtirish hamda kasbiy faoliyatga ijodiy yo'naltirishda kognitiv yondashuv texnologiyalarini qo'llashga oid metodik tavsiyalar "Tajriba va eksperimentlar" nomli metodik qo'llanma shaklida amaliyotga joriy etilgan;

"Bolalarni tabiat bilan tanishtirish" fanini o'qitish jarayonida ijodiy fikrlash, muammoni tahlil qilish, dalillardan oqilona foydalanish, muammoga noan'anaviy yechimlar topish, mustaqil qaror qabul qilish va qarorlarning natijasini oldindan sezish, fikrlarni aniq va izchil ifodalash kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalardan foydalanishning zamonaviy usullari aniqlangan hamda amaliyotga qo'llash uchun taqdim etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, OAK tavsiya etgan hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan "Bolalarni tabiat bilan tanishtirish" nomdagi o'quv qo'llanma, elektron platforma dissertatsiya mazmunini yoritishga imkon beradigan hajmda ekani; tadqiqotda ilgari surilgan nazariy g'oyalarning soha amaliyotining mohiyatini ifodalashga xizmat qilishi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati "tadqiqotchilik faoliyati", "ilmiy tadqiqot faoliyati", "o'quv tadqiqotchilik" tushunchasi mazmuni, tadqiqotning umumiy tuzilmasi, komponentlari, bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari aniqlanganligi, tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning metodik jihatlari aniqlashtirilganligi hamda "Bolalarni tabiat bilan tanishtirish" o'quv moduli mazmuniga tadqiqotchilik faoliyatini singdirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha ixtisoslik fanlaridan o'quv dasturlari, qo'llanma va darsliklarni yaratishda bo'lajak tarbiyachini tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash mezonlari, ko'rsatkichlari, komponentlari, yaratilgan elektron o'quv-uslubiy majmua, dasturiy ta'minot, interfaol nazariy va amaliy mashg'ulot ishlanma, dasturlarni takomillashtirishda foydalanilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasi shaxsiy pozitsiyasini faollashtirishga yo'naltirilgan, o'z-o'zini rivojlantirish va rag'batlantirishning individual faoliyat traektoriyasini intellektual sifatlarining namoyon bo'lish izchilligiga adaptiv uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga doir tavsiyalar "Bolalarni tabiat bilan tanishtirish" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 133-son buyrug'i asosida berilgan 233-0235 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish imkoni yaratilgan;

bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasini rivojlantirish jarayoni izlanuvchanlik kompetensiyasining tashkiliy-maqсадli,

mantiqiy-tizimli, didaktik-diagnostik yondashuvlariga ustuvorlik berish hamda fasilitatsion ta'lim muhitini yaratish, ijodkorlikni rivojlantirishning ichki va tashqi omillari integrativligini izchil yaxlitlash asosida takomillashtirishga oid takliflar "Bolalarni tabiat bilan tanishtirish" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 133-son buyrug'i asosida berilgan 233-0235 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish imkoni kengaytirilgan;

bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash modeli evristik-produktiv faoliyatli ta'lim texnologiyalarining tadqiqotchilikka yo'naltiruvchi muammoli vaziyat yaratish hamda qiyosiylik, o'lchamlilik tamoyillari integrativ kombinatsiyasidan foydalanish hamda amaliy natijalarni nazorat qilish va rag'batlantirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Bolalarni tabiat bilan tanishtirish" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 133-son buyrug'i asosida berilgan 233-0235 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada talabalar va tarbiyachilarning tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishga sharoit yaratilgan;

bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning didaktik taminoti tahliliy va evristik ko'nikmalarini rivojlantirishning transformatsion komponentlarini ilmiy tafakkurdan-amaliy tafakkurga moslashtirish hamda tezkor qarorlar qabul qilish, qo'llash, muammoli va ijodiy mashqlar ishlab chiqish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Bolalarni tabiat bilan tanishtirish" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 133-son buyrug'i asosida berilgan 233-0235 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish samaradorligi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika hamda 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan respublika jurnallarida 7 ta, xorijiy jurnallarda 1 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga**

tayyorlashning metodologik asoslari” deb nomlangan birinchi bobida bo‘lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash-ijtimoiy pedagogik muammo ekanligi bayon etilgan. Talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari, xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali asoslab berilgan. “Talabalarning tadqiqotchilik faoliyati” tushunchasi tavsiflangan.

Shaxs faoliyati – bu atrofdagi dunyoni, uning yashash sharoitlarini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatining o‘ziga xos turi sanaladi. “Tadqiqot faoliyati” iborasidagi muhim so‘z bu – tadqiqotdir. “Tadqiqot” olimlar tomonidan asoslangan qandaydir hodisa, muammoni o‘rganadigan harakat va ilmiy tekshirish ishining natijasidir. Bir tomondan, faoliyat shaxsning rivojlanishi va uning fazilatlarining namoyon bo‘lishining shartidir, boshqa tomondan, faoliyatning o‘zi shaxsning rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lib, faoliyatning predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot – bu kognitiv (bilish) faoliyat jarayoni natijasi bo‘lib, chuqur o‘rganish, har qanday muammo yoki hodisaning obyektivligi, isboti, aniqligi bilan ajralib turadigan, muhim natijalarga erishishga qaratilgan, qayta ishlab chiqarish bilan tavsiflanadi. Tadqiqot faoliyatida ma‘lum harakatlar amalga oshirilib, tadqiqotchining hatti-harakatlarining umumiy ko‘rinishi yuzaga keladi. Tadqiqot xatti-harakatlarining asosi izlanuvchanlik faoliyatiga bo‘lgan ehtiyojdir. Demak, tadqiqot faoliyati deganda tadqiqotchilik xulq-atvoriga asoslangan qidiruv faoliyati mexanizmlari harakati natijasida shakllanadigan intellektual-ijodiy faoliyatning alohida turi tushuniladi.

L.I.Dudinaning ta’kidlashicha, “maxsus tashkil etilgan tadqiqotchilik faoliyati talabalarga pedagogik g‘oya va texnologiyalarni o‘rganish, pedagogika fanining so‘nggi yutuqlari va ta’lim sohasidagi ilg‘or tajriba bilan tanishish, dolzarb muammolarni aniqlashni o‘rganish, aniq vazifani hal qilish bo‘yicha turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish va tanqidiy baholash, taklif etilayotgan texnologiyalarga muvofiq professional harakatlarni modellashtirish, o‘z kasbiy faoliyatini o‘zi tahlil qilish va baholash imkonini beradi”.

A.N.Poddyakov tadqiqotchilik faoliyatining ahamiyatini fikrlashning mustaqilligi, uning ijodiyliigi va ilmiy aks ettirish qobiliyatini (refleksiya), shuningdek, qidiruv xatti-harakatini nazarda tutadigan ilmiy turdagi aqliy tuzilmalarni shakllantirish imkoniyatida ko‘radi.

Bo‘lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilish intellektual va ijodiy qobiliyatlarni, ilmiy tafakkurni, voqelik hodisalariga ijodiy yondashuvni rivojlantirishga, bu hodisalarga xolis baho berish layoqatini shakllantirishga va, albatta, qo‘shimcha bilim manbalarini olishga yordam beradi.

Tadqiqotchilik faoliyatida muhim kognitiv va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, bo‘lajak tarbiyachining maqsadli faoliyati va kasbiy rivojlanishini ta‘minlaydi, kasbiy va shaxsiy taqdirini belgilaydi, ijodiy qobiliyatni shakllantiradi.

Fikrimizcha, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarining “Bolalarni tabiat bilan tanishtirish” fani bo‘yicha tadqiqotchilik faoliyati bilan shug‘ullanishlari juda muhim, unda ularning ilmiy tafakkuri va dunyoqarashini rivojlantirish qobiliyati shakllantiriladi. “Bolalarni tabiat bilan tanishtirish” fanini o‘rganish natijasida, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini dialektik xulosalar uchun manba beradigan juda ko‘p dalil, kuzatuvlar to‘playdilar. Talabalar moddaning bir sifat holatidan

ikkinchisiga o'tish hodisalarini o'rganadilar, mikro, makro, megadunyolarda sodir bo'layotgan biologik va ekologik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi, hayot taraqqiyotining uzluksizligi haqida bilib oladilar. Bu talabalar ongida dinamik dunyo, hodisalarning o'zaro bog'liqligi, rivojlanish qonuniyatlarining universalligi va o'ziga xosligi, tabiatning moddiy birligi va o'zaro bog'liqlik haqidagi ilmiy tasavvurni shakllantirishga imkon beradi. Talabalar o'zlashtirgan bilimlarning to'g'riligiga, tasdiqlanganligiga ishonch hosil qiladilar va material (manba)ni ishlab chiqarish uchun ilmiy asos yaratadilar.

Bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilish intellektual va ijodiy qobiliyatlarni, ilmiy tafakkurni, voqelik hodisalariga ijodiy yondashuvni rivojlantirishga, bu hodisalarga xolis baho berish layoqatini shakllantirishga hamda qo'shimcha bilim manbalarini o'zlashtirishga yordam beradi. Tadqiqotchilik faoliyatining asosiy maqsadi yangilikni bilishdir. Maqsadga erishish yo'llari va usullarini tanlash uchun tadqiqot maqsadlarini shakllantirish muhim.

Talabalarda kognitiv motivlarning paydo bo'lishi bilan bilish jarayonlari (diqqat, idrok, xotira, fikrlash) rivojlanadi, qiziqishlar qayta yo'naltiriladi, qobiliyatlar faollashadi, bu esa, qiziqish uyg'otadigan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga olib keladi. O'quv faoliyatida bilish motivatsiyasini shakllantirish natijasida talabaning ijodiy qobiliyati yuzaga chiqadi, intellektual salohiyati ortadi, muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bilimlar shakllanadi.

Motivatsiyani shakllantirish – bo'lajak tarbiyachining mashg'ulot jarayonidagi tadqiqot faoliyatining zaruriy tarkibiy qismidir. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish esa, talabalarni hayotga tayyorlashning eng muhim sharti, bu nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish yo'lidir.

Xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida Yevropa talabalarining tadqiqotchilik faoliyati – bu yangi bilimlarni kashf etishga olib keladigan tadqiqot muammosini hal qilish bilan bog'liq holda yakka yoki guruhda amalga oshiriladigan intellektual boshqariladigan faoliyat degan xulosaga keldik, bu esa yangi bilimning ochilishiga olib keladi.

Milliy va xorijiy tajribalar asosida tadqiqotchilik kompetensiyasiga quyidagicha ta'rib berdik: tadqiqot maqsadi va obyektini shakllantirish, tadqiqot dasturi va rejasini tuzish, hodisani tasvirlash, gipoteza va tadqiqot muammosini shakllantirish, tajriba o'tkazish va uning natijalarini tushuntirish; berilgan ma'lumotlarni birlashtirish, xulosalar chiqarish uchun ma'lumotlarni umumlashtirish va foydalanish.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasi”** deb nomlanib, unda bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasining mazmuni, modeli va didaktik ta'minoti ishlab chiqilgan.


Talabalarining tadqiqotchilik faoliyati bosqichlar (muammoni aniqlash – maqsadni belgilash-rejalashtirish-amalga oshirish-refleksiya) asosida amalga oshiriladi. Tadqiqot mavzusini tanlashda talabaning qiziqishi va motivatsion sohasining xususiyatlari hisobga olinadi, ularga mustaqil tanlash imkoniyati beriladi.

Bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash amaliyotda quyida keltirilgan vazifalarni hal qilishni taqozo etadi: talabalarni tabiat va uning xususiyatlarini o'rganishga yo'naltiradigan tajriba ish turlariga jalb etish; talabalarda

dars jarayonida tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish, ilmiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish, mustaqil izlanishga ustuvorlik berish; talabalarning intellektual rivojlanishida qiziqishning roli katta ekanini e‘tiborga olgan holda, pedagogik jarayonida tashkil etiladigan faoliyatni rejalashtirishda tadqiqotchilik vositalarning rang-barangligi va ilmiy yo‘nalganligini ta‘minlash; tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda fanlararo integratsiyani keng tatbiq etish; tadqiqot faoliyatiga ta‘sir etadigan omil sifatida ilmiy manbalar, tajriba-sinov ishlaridan foydalanishni kengaytirish; talabalarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini anglash malakalarini shakllantirishda og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy metodlar transformatsiyasini kuchaytirish, professor-o‘qituvchilarning metodik faoliyatiga pedagogik improvizatsiya talablarini joriy etish; amaliy mashg‘ulot va pedagogik amaliyotda “Bolalarni tabiat bilan tanishtirish” faniga oid muammolarni hal etishga yo‘naltirish; talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash bo‘yicha ilmiy seminar va to‘garaklar tashkil etish.

Oliy ta‘lim jarayonida bo‘ljak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda professor-o‘qituvchi umumdidaktik va xususiy tamoyillarga tayanadi. Bu tamoyillar ta‘lim mazmunini amaliyotda samarali qo‘llashni talab etadi hamda talabalarning tabiat haqidagi (jonli va jonsiz tabiat, tabiiy hodisalar, rivojlanish qonuniyatlari, tabiiy-ilmiy va tarixiy-geografik ko‘rinishda ifodalanishi, ilmiy tushuncha va tasavvurlar) aniq bilimlar ko‘lamini shakllantiradi. Natijada talabada fikrlash faoliyati tizimlashadi va tadqiqot konsepsiyasi shakllanishiga yordam beradi, kuzatish ko‘nikmasi, tahlil, taqqoslash va umumlashtirish, xulosa chiqarish, sabab-oqibat munosabatlarini anglash, muhokama va tashxislash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqotimizda talabalarning tadqiqotchilik faoliyati omillarini aniqlab oldik (1-rasmga qarang).



1-rasm. Talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishga ta‘sir etuvchi omillar

Tadqiqot davrida bo‘ljak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda

quyidagi tamoyillarga tayanildi.

Ilmiylik – talabalarda tabiatga oid avvaldan mavjud bilimlarga asoslanib va ulardan kelib chiqqan holda yangi bilim beriladi. O‘qituvchi ma’lumotlarni ilmiy asoslash bilan birga uning mantiqiyligi, tarixiyligini izohlaydi va tahlil qiladi.

Ko‘rgazmalilik – bilim berishda turli ko‘rgazma qurollardan samarali foydalaniladi. Talaba eshitish orqali 15-20% eslab qolsa, ko‘rish va amalda bajarish orqali esa, 80-85% ma’lumotni xotirasida saqlaydi.

Tizimlilik – talabalar tabiat va tabiiy hodisalarining umumiy qonuniyatlari, aloqadorligini tasavvur qilish hamda o‘zlashtirish, turli vazifalarni hal etishni ta’minlaydi. Ular uchun yaratilgan ta’limiy vaziyat va erkin sharoit bilimlarni o‘zlashtirish samarali kechishiga xizmat qiladi. Amaliy mashg‘ulotda qulay muhit yaratish uchun tanlagan faoliyat ketma-ketligini aniqlash va davomiyligini bajarishga imkon beriladi. Talabalar tadqiqotchi rolini ijro etadi, o‘qituvchi ko‘rsatmasini bajaruvchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi.

Izchillik – uzluksiz ravishda nazariy va amaliy bilimlar beriladi, ilmiy to‘garak, mustaqil ta’lim, laboratoriya ishlari vositasida talaba bugun o‘zlashtirgan bilimlarni kecha o‘rganilganlardan kelib chiqib, anglaydi, ularni mustahkamlaydi va ertaga o‘rganiladiganlariga zamin hozirlaydi.

Onglilik va faollik – talabalar o‘zlashtirayotgan bilimni hayotda qo‘llay bilishlari uchun ta’lim berish jarayoni faol fikrlashga qaratiladi, ularni darsda ongli ravishda va faol qatnashishga yo‘naltiriladi.

Qiyosiylik – yangi va avval o‘zlashtirgan bilimlar qiyosiy tahlil qilinadi. Yangi ma’lumotlarni bo‘lg‘usi pedagogik faoliyatida tatbiq etish yo‘llarini ko‘rsatib beradi.


O‘lchamlilik – o‘quv materiallari talabalarning potensiali va o‘zlashtirish darajasiga mos bo‘lishi lozim. Dars mashg‘ulotlari tadqiqotchilik va loyiha usullarida olib borish pedagogik talab hisoblanadi. Tadqiqotchilik talabalarni “subyekt-subyekt”, “qayta aloqa”, “o‘z-o‘zini baholash” munosabatini amalga oshirishini kafolatlaydi. Talabalarning mantiqiy tafakkuri, ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda innovatsion loyihalardan foydalaniladi. Ularning ixtiyoriga ko‘ra, tabiat bilan bog‘liq tanlagan tajriba mavzulari olib boriladi. Tadqiqot ishini rejalashtirishda har bir talabaning individual rejasini tuziladi. Ishning bu bosqichi o‘qituvchining rahbarligida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, talabalarning tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar, internet manbalari (nazariy qism ustida ishlash) bilan mustaqil ishlashini tashkil etish zarur. Talabalarga tadqiqotning kirish va nazariy qismini yoritishda o‘qituvchi metodik ko‘rsatma berib boradi. Har bir talabaga “Tadqiqot kundaligi”ni yuritish tavsiya etiladi, uning ahamiyati va tuzilishi tushuntiriladi. Eksperimental tadqiqotlar faqat o‘qituvchi rahbarligida har bir talaba uchun individual ish rejasiga muvofiq olib boriladi. O‘qituvchi tadqiqot o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar beradi, har bir talabaga individual reja tuzishni o‘rgatadi. Har bir talabaga haftada 2-3 marta maxsus maslahatlar uyushtiriladi. O‘qituvchi rahbarligida tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlash amalga oshiriladi, uning natijalarini tahlil qilish va ro‘yxatga olish amalga oshiriladi, xulosalar va ish uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi. O‘qituvchining uslubiy yordami talabalarga auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda tadqiqotchilik qobiliyati va ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Bu esa, talabalarning “Bolalarni tabiat bilan tanishtirish” fani bo‘yicha

tadqiqotchilik faoliyatini muvaffaqiyatli kechishini kafolatlaydi.

Talabalarining tadqiqotchilik faoliyatini o'quv-uslubiy ta'minlash ham amalga oshirildi. Ular qator usullarni o'z ichiga oladi: diagnostik (anketa o'tkazish, test, suhbat, intervyular); prognostik (taqsimlash, o'z-o'zini baholash, ekspert bahosi); kuzatuvchanlik (bevosita va bilvosita kuzatish, o'zini-o'zi kuzatish); praksimetrik (faoliyat mahsulotlarini tahlil qilish); natijalarni statistik qayta ishlash usullari.

Tadqiqotimizda jamoaviy tadqiqot loyihasi ham amalga oshirildi. "Bolalarni tabiat bilan tanishtirish" fanini o'qitishda "Tabiat, inson va ekologiyaning bir-biriga bog'liqligi haqidagi bilimlarni rivojlantirish" mavzusidagi loyiha taqdim etildi. Mazkur loyihani amalga oshirishda ta'limiy maqsad qo'yildi: talabalarning tabiat, jamiyat va ekologiya haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, hayvon, o'simliklar va insonlar o'rtasidagi munosabat, hozirgi kundagi ekologik holat, insonlarning tabiatga bo'lgan munosabati (ijobiy, salbiy oqibatlar), tabiat va ekologiya tushunchalarini bolalarga "bola tilida" tushuntirish kabi bilimlarni kengaytirish ko'zda tutildi. Ushbu loyiha ustida ishlash natijasida bo'lajak tarbiyachilarning muvaffaqiyatli tadqiqotchilik faoliyati uchun zarur bo'lgan axborot, tadqiqot ko'nikma va malakalari rivojlandi. Bo'lajak tarbiyachilar tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish orqali nanotexnologiyaning elementlarini o'zlashtirdi, natijada zamonaviy pedagog ilmiy dunyoqarashining shakllanishiga erishildi. Tadqiqotchilik faoliyati fanlararo jarayon bo'lib, "integratsiyalashgan-kompleks" deb ataladi. Bunga misol qilib, "Bolalarni tabiat bilan tanishtirish" fan mavzularini keltirish mumkin: "Bolalarda tabiatdagi ekologik bog'lanishlar haqidagi bilimlarni shakllantirish", "Yer va quyosh haqida tasavvurlarini shakllantirish". Bunda biologiya, ekologiya, kimyo, fizika kabi tabiiy fanlar mazmuni kesishadi.


Tadqiqotchilik faoliyatining maqsadi – bo'lajak tarbiyachilar yangi bilimlarga tayangan holda, ilmiy va ijodiy izlanishga yo'naltiriladi. Ularning atrofdagi dunyo bilan o'zaro aloqa jarayoni faol va ongli ravishda tartibga solinadi. Asosiy ehtiyojlarni qondirish inson hayotining markazida yotadi. Tadqiqotchilik faoliyati insonning o'zini va atrofdagi dunyoni bilish kabi bilim ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Biroq, ehtiyoj faoliyatning aniq yo'nalishini aniqlay olmaydi. U o'zining aniqligini faqat faoliyat mavzusida oladi. Bu obyekt faoliyatning motiviga aylanadi va uni rag'batlantiradi. Bilim oluvchilarni har qanday tadqiqot bilan shug'ullanishga majburlash mumkin emas, balki uning ijodiy faoliyati uchun ma'lum pedagogik shart-sharoitlar yaratish orqali amalga oshirish mumkin. Tadqiqotda bo'lajak tarbiyachilarning tadqiqotchilik faoliyati tuzilmasi ishlab chiqildi (2-rasmga qarang). Tadqiqotchilik faoliyat jarayonida qisqa yoki epizodik emas, balki doimo va barqaror faoliyat davom etadi. Ijodiy qaror qabul qilishga mustaqil yondashish hamda jarayonga motivatsion va emotsional munosabat bildirish ko'nikmasi shakllanadi. Interfaol topshiriq va mashqlarni bajarib, talabalar o'rgangan manbalarni mustahkamlabgina qolmay, yangisini ham o'rganishadi. Talabalar o'zaro va to'g'ridan-to'g'ri yoki aks aloqa orqali ta'sir, ya'ni "talaba-o'qituvchi-talaba" munosabatida bo'ladi. O'z navbatida, talaba o'quv jarayonining faol ishtirokchisi, ya'ni ta'lim subyekti o'rnini egallaydi. Talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda ularning qiziqish va ehtiyojini qondirish ustunlik qilishi lozim. Talabalar individual va jamoaviy shaklda eksperiment ishlarini olib boradi.



2-rasm. Talabalarning tadqiqotchilik faoliyati tuzilmasi

Tadqiqotchilik faoliyati natijasida talabalarda ko'rgazmali-harakatli va ko'rgazmali-obrazli tafakkur mustahkamlanadi. Talabalarda yangi faoliyat turiga qiziqish paydo bo'ladi, tadqiqotchilikka doir elementar harakatlar shakllanadi, shuningdek, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik jihatdan rivojlanadi.

